


II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2022-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 13 136,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 115,9 foizni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 113,4 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning 19,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 124,6 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 100,7 % ga o'sishi kuzatildi.

Asosiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %

2021- yil yanvar-sentabr



2022- yil yanvar-sentabr



Tog'-kon sanoati va ochiq konlari ishlashi



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash havoni konditsiyalash




Ishlab chiqariladigan sanoat



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so‘m)



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,0 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,007 % ni va o‘shish sur‘ati indeksi 19,5 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 656,8 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 96,350 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ning ulushi 0,11 %ni (2021- yil yanvar-sentabr oylarida – 0,18 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 41,3 % (47,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 4,0 % (6,9 %) va quyi texnologiyali – 51,0 % (41,6 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %da**



Jami viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 14,2 mlrd.soʻmlik (2021-yil yanvar-sentabr oylarida 14,5 mlrd.soʻm), oʻrta-yuqori texnologiyali tarmoqda 5 421,2 mlrd.soʻmlik (3 893,5 mlrd.soʻm), oʻrta-quyi texnologiyali tarmoqda 521,1 mlrd.soʻmlik (568,4 mlrd.soʻm), quyi texnologiyali tarmoqda 6 700,3 mlrd.soʻmlik (3 416,7 mlrd.soʻm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan
natura koʻrinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun)**

<i>Mahsulot turlari</i>	<i>Oʻlchov birligi</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabriga nisbatan, % da</i>
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)	dona	52673,0	42356,0	124,4
Maxsus yengil avtomobillar	dona	14389,0	11056,0	130,1
Aroq	ming litr	50,2	40,8	122,9

<i>Mahsulot turlari</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabriga nisbatan, % da</i>
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari	ming litr	5,8	5,6	102,2
Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari	ming litr	383,3	368,0	104,2
Yumshoq bug'doy va spelta uni	tonna	65962,0	65250,4	101,1
Tozalangan o'simlik yog'i	tonna	7411,7	16587,3	47,0
Xo'jalik sovuni	tonna	1638,22	3270,47	50,1
Paxta tolasi	tonna	47178,1	37217,6	126,8
Paxta chigiti	tonna	88930,8	69734,3	127,5
Shakar	tonna	206302,0	206282,8	100,0

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi - 247,3 mln. kVts. ga, yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) – 10317 donaga, aroq – 9,4 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari - 15,3 ming litrga, paxta tolasi – 9960,5 tonnaga, paxta chigiti – 19196,5 tonnaga ishlab chiqarish ko'paygan.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 391,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,979 % ni) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tizimi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati indeksi 24,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun)

	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabrigha nisbatan, % da</i>
Elektroenergiya	mln.kVt/s	374,7	127,4	2,9 m.
Issiqlik energiyasi	ming Gkall	45,2	47,7	94,7

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 87,2 mlrd.so‘mni jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda yirik sanoat korxonalarini tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

(2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun)

<i>Faoliyat turlari</i>	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da</i>
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar	mlrd.so‘m	101,2	101,5
Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar	mlrd.so‘m	4,6	120,0
Shahar xo‘jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar	mlrd. so‘m	15,6	85,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun)


<i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr (mlrd. so'm)</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabr (mlrd. so'm)</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jami	13 136,2	8 212,5
Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1,0	1,7
<i>ulardan:</i>		
Tog'- kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	1,0	1,7
Qayta ishlash sanoati	12 656,8	7 892,9
<i>shundan:</i>		
Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	2 962,7	1 108,1
Ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	758,2	266,9
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	2 641,1	1 779,4
Kiyim ishlab chiqarish	59,7	42,5
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	12,8	4,6
Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlari, ishlab chiqarish	25,1	22,8
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	128,0	91,7
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	4,9	0,9
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	4,6	0,3
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	27,6	21,0
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	14,0	14,2
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	60,7	71,1
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	267,8	267,5
Metallurgiya sanoati	40,6	24,9
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	127,3	132,8

<i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr (mlrd. so‘m)</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabr (mlrd. so‘m)</i>
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	0,3
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	31,8	17,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	331,3	147,8
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	5 030,4	3 707,6
Mebel ishlab chiqarish	36,7	30,2
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	71,2	69,4
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	20,2	71,8
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	391,3	235,6
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	87,2	82,2


Iste'mol mollari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 8 340,2 mlrd.so'mlik iste'mol mollari ishlab chiqarilib, 2021-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 126,2 foizni tashkil qildi.

**2021-2022- yil yanvar-sentabr oylarida iste'mol mollari
ishlab chiqarish hajmi va o'sish surati, %**




Iste'mol mollari ishlab chiqarishda oziq-ovqat va alkogol mahsulotlari 3 357,6 mlrd.so'mni va 4 982,6 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan 2021-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 131,2 foiz va 123,1 foizni tashkil qildi. Jami iste'mol mollari ishlab chiqarishdagi ulushi 40,3 foizni va 59,7 foizni tashkil qildi.



Hududlar bo'yicha sanoat va iste'mol mollari ishlab chiqarish
(2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun)
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>Sanoat mahsulotlari, mlrd. so'mda</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi %</i>	<i>Iste'mol mollari, mlrd. so'm</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da</i>
Xorazm viloyat bo'yicha	13 136,2	115,9	8 340,2	126,2
Urganch sh.	2 312,8	114,4	1 244,0	150,1
Xiva sh.	167,8	107,3	119,8	110,9
Bog'ot	397,5	110,7	135,5	105,8
Gurlan	336,4	109,1	131,1	130,4
Qo'shko'pir	260,6	101,7	75,8	100,3
Urganch	656,5	113,5	320,5	136,8
Hazorasp	341,7	102,2	79,1	115,9
Tuproqqal'a	6 833,1	113,3	5 528,7	123,2
Xonqa	469,3	105,6	269,1	119,6
Xiva	170,7	104,1	87,1	111,5
Shovot	498,5	102,2	125,8	104,1
Yangiariq	271,6	115,7	109,8	128,7
Yangibozor	419,7	120,2	113,8	168,9


Sanoat ishlab chiqarishda hududlarning ulushi, % da



- Tuproqqa'a ■ Urganch sh ■ Urganch ■ Shovot ■ Xonqa
- Gurlan ■ Bog'ot ■ Qo'shko'pir ■ Hazorasp ■ Xiva
- Yangibozor ■ Yangiariq ■ Xiva sh ■ Xiva sh

Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Tuproqqa'a tumani 52,0 foiz, Urganch shahri 17,6 foiz, Urganch tumani 5,0 foiz, Shovot tumani 3,8 foiz, Xonqa tumani 3,6 foiz, Gurlan tumani 2,6 foiz, Bog'ot tumani 3,0 foiz, Yangibozor tumani 3,2 foiz, Qo'shko'pir tumani 2,0 foiz, Hazorasp tumani 2,6 foizni, Yangiariq tumani 2,1 foiz hamda eng past bo'lgan Xiva tumani 1,3 foiz va Xiva shahri 1,3 foizni tashkil qildi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida,
foiz hisobida**



Davlat va xususiy biznesning o‘zaro hamkorligi doimo har bir zamonaviy demokratik davlatning diqqat e’tiborida bo‘lgan. Keyingi yillarda butun dunyoda hukumat va biznes hamkorligining kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta’minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq, Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalarini tomonidan 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida 7 605,0 mlrd.so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shuning bilan birga davlat sektorida 17,9 mlrd.so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 0,1 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 13118,3 mlrd.so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 99,9 % ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan
sanoat mahsulotlari va iste‘mol mollari ishlab chiqarish**


ming so‘m

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, ming so‘m</i>	<i>Iste‘mol mollari, ming so‘m</i>
Xorazm viloyati bo‘yicha	6 786,6	4 308,8
Urganch sh.	15 642,9	8 414,2
Xiva sh.	1 751,6	1 250,6
Bog‘ot	2 330,5	794,2
Gurlan	2 201,6	857,8
Qo‘shko‘pir	1 472,6	428,3
Urganch	3 173,9	1 549,7
Hazorasp	1 709,3	395,9
Tuproqqal‘a	119 793,4	96 924,5
Xonqa	2 435,0	1 396,0
Xiva	1 134,8	579,3
Shovot	2 844,5	717,8
Yangiariq	2 272,1	918,5
Yangibozor	4 667,4	1 266,0

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili, Tuproqqal‘a tumanida (119 793,4 ming so‘m), Urganch shahrida (15 642,9 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (6 786,6 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Qolgan Qo‘shko‘pir (1 472,6 ming so‘m), Xiva tumani (1 134,8 ming so‘m) va Hazorasp tumanida (1 709,3 ming so‘m) ko‘rsatkich past ekanligini ko‘rish mumkin.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste‘mol mollari ishlab chiqarishining o‘sishi, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, %da




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda yildan yilga ularning hissasi tobora ortib bormoqda.

Xususan, 2022- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 117,6 %ga va ishlab chiqarish hajmi 2 123,4 mlrd.so‘mga oshgan, o‘z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 16,2 %ni tashkil etmoqda.

**Hududlar bo'yicha yirik va kichik biznesning sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarishdagi ulushi, %da
(2022-yil yanvar-sentabr oylari)**




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (100,0 %), Urganch (54,6 %), Xiva (57,1 %), Bog'ot (33,3 %), Xonqa (35,3%), Yangiariq (41,0 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulush Tuproqqal'a (2,4 %) tumanida kuzatildi.


Qo'shma korxonalarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi

Hisobot davrida 27 ta qo'shma korxonalar tomonidan 1 606,7 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi esa 12,2 % ni tashkil etdi.

**Viloyatda qo'shma korxonalar mahsulotlarining
sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %**




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda hududlar bo'yicha qo'shma korxonalarining umumiy hajmidagi ulushi, %da




Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4751 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 870 tasi (18,3 %) – Urganch shahri, 548 tasi (11,5 %) – Urganch tumani, 410 tasi (8,6 %) – Xonqa tumani, 434 tasi (9,1 %) – Qo'shko'pir tumani hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, birlik
(2022- yil yanvar-sentabr)



Viloyatda 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 1000 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil qilingan bo'lib, shularning 115 tasi Urganch shahriga, 92 tasi Bog'ot tumaniga, 101 tasi Qo'shko'pir tumaniga, 84 tasi Urganch tumaniga, 76 tasi Xonqa tumaniga, 84 tasi Gurlan tumaniga, 72 tasi Xiva shahriga, 79 tasi Xiva tumaniga to'g'ri keladi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 109 ta loyiha bo'yicha 369,1 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>
Loyihalar soni	birlik	110	109
Korxonalar soni	birlik	89	93
Ishlab chiqarish hajmi	mlrd. so'm	209,2	369,1

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari
(2022- yil yanvar-sentabr)**

	<i>Loyihalar soni, birlikda</i>	<i>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>Eksporthga sotilgan mahsulot hajmi, ming AQSh dollari</i>	<i>Yangi tashkil qilingan ish o'rinlari soni, birlikda</i>
--	-------------------------------------	---	--	--

Jami:	109	369,1	6,5	381
--------------	------------	--------------	------------	------------

shundan;

Urganch sh.	28	130,5	0,05	36
-------------	----	-------	------	----

Xiva sh.	3	0,14	-	-
----------	---	------	---	---

Bog'ot	4	3,4	-	20
--------	---	-----	---	----

Gurlan	12	30,0	1,3	51
--------	----	------	-----	----

Qo'shko'pir	4	4,2	0,26	10
-------------	---	-----	------	----

Urganch	10	28,9	-	14
---------	----	------	---	----

Hazorasp	5	0,8	-	12
----------	---	-----	---	----

Tuproqqal'a	15	122,5	4,9	217
-------------	----	-------	-----	-----

Xonqa	5	9,0	-	-
-------	---	-----	---	---


Xiva	7	5,7	-	12
------	---	-----	---	----

Shovot	5	29,8	-	8
--------	---	------	---	---

Yangiariq	4	3,3	-	-
-----------	---	-----	---	---

Yangibozor	7	1,4	-	1
------------	---	-----	---	---

Mahalliyashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, foizda



Statistik ko'rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tushadigan ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishida o'zgarish indeksleri – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir;

Iste'mol mollari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi – boshqa korxonalariga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash Evrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

Mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.